

O'ZBEKISTON BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH DAVRIDA KORXONALARDA RAQAMLI VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH

Farg'ona politexnika instituti 4-bosqich talabasi

Botirova Xusnora Muhsinjon qizi

husnora2002botirova@gmail.com

Ilmiy rahbar: Sultonova Gulbaxor Shoxnazimovna

Assistent FarPI Iqtisodiyot kafedrası

sultonovagulbaxorxon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy jihatlariga qaratilgan bo'lib, raqamli texnologiyalarni zamonaviy jamiyatning iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri ko'rib chiqilgan. Iqtisodiyotni raqamlashtirish borasida mamlakatda amalga oshirilayotgan chora tadbirlar natijasida bugungi kunda erishilgan natijalari, raqamli iqtisodiyotning dunyo bo'yicha ko'rsatkichlari keltirib o'tilgan. Shu bilan birga mamlakatda iqtisodiyotni raqamlashtirishni kuchaytirish bo'yicha bir qator takliflar tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, e-hukumat, big data, IT park, robototexnika, mobil texnologiyalar.

Hamмамizga ma'lumki hozirgi kunda hayotimizni innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar tubdan o'zgartirib bormoqda. Ushbu texnologiyalar o'rni va ahamiyati mamlakatimizning turmush tarzini sezilarli darajada yaxshilamoqda. Innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar Iqtisodiy-ijtimoiy sohalarida keng foydalanib mamlakatimizni barqaror rivojlanishi ta'minlanmoqda. Raqamlashtirish jarayonda jiddiy rol o'ynaydigan va innovatsiyalarni korxonalar uchun strategik resursga aylantiradigan xalqaro kapital bozori kengayib bormoqda, bu borada unga yangi moliyaviy tuzilmalar unga yordam bermoqda. Iqtisodiy o'sishning samarali yo'liga erishishni ta'minlash uchun rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligi singari O'zbekistonda ham milliy innovatsiya va raqamli tizimini shakllantirish hamda iqtisodiyot tarkibida innovatsion va raqamli faol tarmoqlar va korxonalarni rivojlantirish va salmog'ini oshirish kerak.

So'ngi vaqtlarda "Raqamli iqtisodiyot" tushunchasi juda ko'p marta qo'llanilmoqda. Darhaqiqat, ko'plab rivojlangan mamlakatlarda raqamli iqtisodiy ularning rivojlanish omillariga sezilarli darajada ta'sir o'tkazgan. Jamiyat hayotida raqamli iqtisodiyot muhim rol o'ynaydi. Asosan raqamli iqtisodiyotni rivojlanishining asosiy elementi sifatida elektron tijorat, internet banking, elektron to'lovlar, internet reklama va shu bilan birga, internet o'yinlari ko'riladi. Raqamli iqtisodiyot keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan xavflar Kiber hujum xavfi, shaxsiy ma'lumotlar himoyasi

bilan bog'liq muommolar;"Raqamli qullik" (millionlab insonlar ma'lumotlaridan keyinchalik ularni o'zlarini tutishini boshqarish uchun foydalanish); ishsizlikni oshishi, axborot texnologiyalarini rivojlanishi va uni tadbiq qilinishi ortidan bir qancha sohalar va kasblar yo'q bo'lib ketishi mumkin. "Raqamli" davlatlar bugungi kunda Norvegiya, Shvetsiya va Shvetsariya hisoblanishadi. Raqamli iqtisodiyot rivojlangan 10 ta davlatlar qatoriga AQSH, Buyuk Britaniya, Daniya, Finlandiya, Singapur, Janubiy Koreya va Gonkong kiradi. Dunyo tajribasini o'rganish natijasida shu narsa aniq bo'ldiki, raqamli iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotda davlat(hukumat) bozor "O'yin" qoidalarini o'yinning barcha ishtirokchilari uchun belgilaydi va bunda davlatning eng muhim vazifasi sifatida o'yin ishtirokchilari uchun bir xil, teng huquqli va imkoniyatli sharoit yaratib berish hisoblanadi. Ya'ni, bozorda katta kompaniya bo'ladimi yoki kichik biznes, ular teng huquqli hisoblanadi. Ularga bir xil imkoniyatlar beriladi. Davlat qoidalarga amal qilinishi va oxir oqibatda oddiy iste'molchi sifatli, zamonaviy xizmat yoki mahsulot olishi ta'minlanadi. Demak, raqamli iqtisodiyot rivojlanishi uchun davlat hamma uchun teng sharoit yaratib berishi, iloji boricha bozor qoidalari, qonunlar, shartnomalar shaffof bo'lishi, qonunlar bozor talabidan kelib chiqqan holda(ya'ni bozordagi rivojlanish tendensiyalarini oldindan aniqlay olishi va kerakli normativ hujjatlarni qabul qilishi) o'yin ishtirokchilari uchun erkinlik berishi zarur. Dunyo mamlakatlari kabi O'zbekistonda ham raqamli iqtisodiyot rivojlanmoqda. Kundalik hayotimizga axborot texnologiyalarni tadbiq qilinishi ortidan oddiy insonlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratilmoqda. Hozirga kunda uydan chiqmasdan ko'plab oziq-ovqat mahsulotlari va taomlariga buyurtma berishimiz, ularni uyimizgacha yetkazib berishlari mumkin. Lekin shuni ta'kidlash kerak-ki, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot O'zbekiston potensialiga nisbatan bir necha barobar sekinroq rivojlanmoda. Ya'ni imkoniyat bor, kerakli resurslar mavjud lekin rivojlanish ancha sust. Bunga sabab sifatida raqamli iqtisodiyotni O'zbekistonda rivojlanishini bir qancha to'siqlarini ko'rsatib o'tish mumkin.

- ko'plab sohalardagi monopoliya;
- internet tezligini pastligi va uni sifatsizligi;
- axborot texnologiyalari sohasida qonunchilikning zamondan orqada qolganligi;
- fuqarolarda kompyuter savodxonligining o'ta pastligi;
- qonunchilikning shaffof emasligi;
- axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassislarining yetishmasligi yoki ularni boshqa mamlakatlarga ketib qolishi;
- axborot madaniyati, axborot gigiyenasi pastligi;
- axborot texnologiyalari xavfsizligi yaxshi emasligi;
- boshqaruv organlarida sohani tushunadigan mutaxassislarining kamligi yoki(ba'zilarida) ularning umuman yo'qligi;

- ilm-fan va ayniqsa aniq fanlarning rivojlanishi sustligi(yoki rivojlanishdan to'xtab qolganligi).

Yuqorida keltirilgan muommolar bosqichma-bosqich, tizimli, dunyo tajribasidan kelib chiqib hal qilinsa, O'zbekiston ham bimalol raqamli iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlardan biri bo'la oladi. Agar raqamli iqtisodiyot texnologiyasi konsepsiyasi iqtisodiy rivojlanishga to'liq joriy etilishi mumkin bo'lsa, u rezidentlarning iste'molga bo'lgan intilishini samarali rag'batlantiradi, iste'mol ta'minoti salohiyati va sifatini yaxshilaydi, shu bilan barqaror iqtisodiy rivojlanishga turtki beradi. Korxonalarining raqamli transformatsiyasi ularning innovatsion ongini oshirishga va ijtimoiy iste'mol tuzilmasini yangilash uchun mustahkam poydevor yaratishga yordam beradi. Raqamli iqtisodiyot texnologiyasini an'anaviy tarmoqlarda qo'llash yanada moslashuvchan ishlab chiqarishga olib kelishi mumkin, bu esa iste'molchilarning diversifikatsiyalangan ehtiyojlarini yanada samarali qondirishi mumkin. An'anaviy korxonalarni raqamlashtirish, shuningdek, maxsus ishlab chiqarish va aqlli ishlab chiqarishdan yaxshiroq foydalanish orqali mijozlarga xizmat ko'rsatish kanallarini boyitish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, raqamli iqtisodiyot iqtisodiy rivojlanish, ekologik barqarorlik va ijtimoiy birdamlikka hissa qo'shishi mumkin. Xorijiy tajribalarini o'rganib, mamlakatimizda ham joriy etish chora tadbirlari boshqichma-boshqich amalga oshirish lozim. O'zbekistonda davlat boshqaruvi va iqtisodiyotning real sektorini raqamlashtirish mamlakat samaradorligini oshirish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu boradagi sa'y-harakatlar esa allaqachon o'z natijasini bermoqda. Mamlakatimizda ham raqamli iqtisodiyot barcha sohalarda qo'llanilsa, ochiq iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi yanada jaddallashib boradi. Shu bilan birga yashirin iqtisodiyotga barham beriladi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 24 iyulda "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ID-9413-son "O'zbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish kontsepsiyasi to'g'risida" gi qarori.
3. G'.M. Porsaev, B.Sh. Safarov, D.Q. Usmanova. Raqamli Iqtisodiyot asoslari Toshkent – 2020.B.8.
4. Хусаинов З.А. Инновационные процессы в образовании. – Казань-2014.
5. Шайхуллина И.С. Инновационный менеджмент как средство повышения качества художественного образования в педагогическом университете.